

2023-YIL — Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili

MA'RIFAT VA YOSHLAR



Ma'rifatli yoshlar
Yangi O'zbekiston
kelajagidir

Ilmiy-ijtimoiy-huquqiy gazeta

2023-YIL 5-MAY, JUMA № 9 (33)

Sirdaryoda III Xalqaro baxshichilik festivaliga start beriladi

Joriy yilning 6-7-8-may kunlari Guliston shahrida III Xalqaro baxshichilik festivali bo'lib o'tadi. Unga 1 500 nafardan ortiq ijodkorlar jalb etilgan. Shuningdek, 40 dan ortiq xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan baxshichilik san'atiga doir 30 nafardan ziyod musiqa ijrochilari ishtirok etadi.

Festival doirasida baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoir, oqin va jirovlar ijodining sharq madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya, xorijiy va O'zbekiston baxshichilik san'ati ustalari ijrosida yakkaxon kontsertlar va dostonchilik kechalari, gala-konsert tashkil etiladi.

Bu galgi festival Gran-Pri sohibiga 7 ming dollar miqdorida pul mukofoti belgilangan. Ikkita yo'nalishda birinchi o'rin uchun 10 ming dollar, uchunchi o'rinni egallaganlarga 3,5 ming dollar mukofot puli beriladi

“Sirdaryo.uz” dan olindi.

AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING AHAMIYATI

Viloyatimizda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish uchun bir nechta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, gazeta va jurnallarda, rasmiy veb saytlarda maqolalar chiqarilmoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, umumtali maktablarda, mahallalarda hamda boshqa turli tashkilotlarda davra suhbatlari va seminarlar tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining xaritalari, uylarning raqamlanish jarayonlari yoki raqamlanmaganlik holati rejali asosda muntazam o'rganilmokda. Aholini ro'yxatga olish - bu mamlakat aholisining muayyan vaqtidagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko'lamli uzoq vaqt talab qiluvchi tadbir bo'lib, aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini aniqlovchi ishonchli axborot manbai

hisoblanadi. Aholini ro'yxatga olishning asosiy maqsadlaridan biri Respublika aholisini tarkibiy holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborotni olishdan iboratdir. Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari ijtimoiy himoya investitsiya uy-joy sog'likni saqlash madaniyat turizm ta'lim yo'l qurilishi va infratuzilma kabi manzilli dasturlarni tayyorlanishi va amalga oshirilishda xizmat qiladi. Kelgusida aholini ro'yxatga olish natijalariga asoslanib, ushbu dasturlarni amalga oshirish natijalarini baholash iqtisodiy prognozlash va demografik siyosatini shakllantirish mumkin.

B.HAMIDOV,
Viloyat Statistika Boshqarmasi
yetakchi mutaxassisi.


KITOBXON YOSHLAR SAFI KENGAYMOQDA

Kitobdan a'lo do'st yo'q, deganlaridek, ilmu ma'rifatga intilganlarning yo'llari ravon, kelajagi yorug' bo'ladi. Ilmiy tomondan isbotlangan ushbu so'zlar hozirgi zamon yoshlari tomonidan qanday qabul qilinganligi xususida mulohaza yuritamiz.

Ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida o'rta va katta avlod vakillari tomonidan hozirgi yoshlar kitob o'qishmaydi, ular faqat telefondan ma'lumot olishadi degan, gaplar tez-tez quloqqa chalinib turadi. Xo'sh bu ta'kidlarning zahirida haqiqatning ulushi necha foizni tashkil qiladi?

Masalaga biri nchi yondashuv

yoshlarimizning test natijalariga ko'ra talabalikka qabul qilinayotganini



kuzatsangiz, bir o'ringa nechta abiturient to'g'ri kelishi, talabalikka tavsiya etilayotganlar o'rtasidagi raqobat, ballar tizimida qiyoslanganda qanday infografika hosil bo'lishi,

Respublika Konstitutsiyaviy qonun loyihasi qabul qilingan deyishga asoslar yetarli

Markaziy saylov komissiyasi Matbuot markazida MSK raisi ishtirokida brifing bo'lib o'tdi. Unda Markaziy saylov komissiyasi raisi Z.Nizomxo'jayev 30-aprel kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi referendumining dastlabki natijalari bo'yicha ma'lumot berdi.



Qayd etilganidek, referendumda saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga 19 million 722 ming 809 nafar ovoz beruvchi fuqarolar kiritilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi 55 ta referendum uchastkalarida 307 ming 895 ming fuqaro ro'yxatga kiritilgan. Jami ovoz beruvchilarning 16 million 673 ming 189 nafari yoxud ovoz beruvchilarning 84,54 foizi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi qabul qilingan deyishga asoslar yetarli ekanligi ta'kidlandi.

“uzauz” dan olindi.

QADRIYATLAR QADRLANDI

Yaqinda, Guliston shahridagi 3-umumta'lim maktabida “Qadriyatlar qadrlangan yurt» mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbirda milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi qo'shiqlar, raqsar, va laparlar, allalar, aytili. Xalq amaliy san'ati namunalari iqtidorli rassom o'quvchilari qog'ozda ifodalashdi.

Bu tadbir orqali o'quvchi yoshlarga milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos turlari va boshqa xalqlar qadriyatlaridan farqli jihatlari haqida ham ma'lumotlar berildi. Yoshlar ongida milliy meroslarimizga hurmat va ehtirom tuyg'usi shunday madaniy tadbirlarda ko'rsatilgan amaliy jarayonlar orqali yanada keng tushuntirib berildi.

Gulnora HAYDAROVA

natijalarning internet ijtimoiy tarmog'i orqali onlayn kuzatilgan xulosalarimdan shuni ayta olamanki, yuqoridagi negativ fikrlarga aslo qo'shilib bo'lmaydi.

Kitobxonlik darajasi yuqori hisoblangan o'tgan asrning saksoninchi yillarida ham yoshlarning hammasi kitob o'qimaganligiga o'zim guvohman. O'sha davrda ham qiziqishi yuqori o'quvchilar kitobga astoydil mehr berib o'qiganlar. Men bu fikrim bilan kitob o'qimaganlarni tanqid qilish fikridan yiroqman. Faqat bir narsani har zamonda ham kitobga qiziquvchi qatlam bo'lganini, bu hech qachon yo'qolmasligini ta'kidlamoqchiman.

Shu o'rinda bir narsani aytmasam bo'lmaydi. Ilgarilari bunday oq

qog'ozdagi bejirim muqovali kitoblar kamroq bo'lardi, ko'proq sariq qog'ozli kitoblar peshtaxtalarda sotilardi.

Hozirgi yoshlarga bu jihatdan mening havasim keladi. Zamonaviy qurilgan kitob do'konlaridan xohlagancha o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarining sifatli nashrlarini xarid qilishlari mumkin.

Yaqinda Guliston shahridagi 6-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan “Zukko kitobxon” tanlovini tomosha qilib, yoshlarimizning kitobxonlik saviyasini ko'rib nihoyatda shodlandim. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Dilfuza Qosimova, Sarvinov Shukurovalarning shogirdlari bo'lgan yosh kitobxonlarning zakovati tahsinga loyiqdir.

A.NURBOYEV

MUTOLAA — BILIMDONLIK POYDEVORI

Biz — ta'lim sohasi vakillari, xususan, psixologlar uchun bolaning fikrlash jarayonini aniqlash va o'stirish borasidagi eng dolzarb savollarimizdan biri bu shubhasiz, “kelajakda kim bo'lasan?” degan savoldir. Shaxsan men suhbatini olgan bolalarning aksariyati, masalan yigit o'quvchilarimiz hech ikkilanmay ichki ishlar bo'limi xodimi deb javob berishadi. Bu borada esa ularga zaruriy, o'rinli maslahatlarni biz — pedagoglar ular qiziqayotgan shu soha vakillari bilan yaqindan suhbat olib borish, amaliyotlarini kuzatish natijasidagina ko'proq bilishimiz mumkinligini kasbiy ko'nikmalrimizdan aniq anglab boramiz. Bugun ushbu sharaflilik kasbni tanlagan va bolaligidan kitobga nihoyatda xayrixoh bo'lgan, kuzatuvimizdagi fidoyi IIB xodimining ish jarayonlari xususida, o'quvchilarimiz talab va istaklariga binoan yoritib o'tmoqchi bo'ldik.

Boyovut tumani IIB boshlig'i-ning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Azizbek Sayitov bolaligidanoq kitob o'qish zavqi va shijoati bilan o'sgani, bugungi kunda tanlagan kasbiga qanchalar asqotayotganini ulug' bir yo'lday xotirlaydi. Va ushbu harakatlarini atrofga, xususan, hamkasblari ongiga ham yaqindan singdirib borishga intiladi. Bu borada Ichki ishlar vazirligining 2021-yil 21-oktyabr kuni 400-sonli buyrug'i asosidagi o'qilishi tavsiya etilgan kitoblarni ro'yxati A.Sayitovga chinakam dasturamal bo'lganini u to'liqlanib gapiradi. Yuqorida tilga olingan jami 39 ta (23 ta O'zbek adabiyoti, 16 ta jahon adabiyoti) durdonalari ro'yxatini kuzatar ekanmiz, ro'yxatdagi Primqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” kitobidan bir nishongir savol bilan kitobxonimizni sinamoqchi bo'lib “Asarning asosiy qahramonlaridan biri sanalgan Akbarning farzandi shahzoda Salimning ustoz kim edi?” deganimizni bilamiz, shu zahotiy oq “Farid Buxoriy edi”, deb kasblariga mos jiddiyatga cho'kdilar. Buning

sababini esa, sal o'tib shahzoda Salim taqdiridagi ayrim otasini ranjituvchi holatlar bilan izohlab o'tdilar.

Singlim, biz Boyovut tuman IIB xodimlarining ma'naviy saviyasini oshirishga qaratilgan turli xil tadbir va zakovat intellektual o'yinlari orqali o'z o'qigan kitoblarimizni



shu kabi savollar bilan yanada mustahkamlab boramiz. Aynan shu savol “Zakovat”da tushgandi, deb qo'shimcha qiladilar kitobxonimiz. Kelajakda o'z jamoalari orqali maktab o'quvchilari bilan ham zakovat intellektual o'yinini aynan, kitoblarni borasidagi savollar bilan tashkillashtirish niyatlari borligini ham aytib o'tganlari, bizga yuqori kayfiyat, yangicha metodik yo'l ko'rsatish bo'ldi, shubhasiz. Shuningdek, bu boradagi tanlov va ma'naviy soatlarini yanada mustahkamlash maqsadida tumanimizda har oyning oylik maoshi tushar oldi

“Mutolaa — sinchkovlik poydevori” shiori ostidagi kitob yarmarkalarini tashkil etamiz, deb qo'shimcha qildilar. Har oymi deb, ishonchsiz yuzlanganimizni ko'rib, bizga qo'ng'iroq uchun raqam uzatdilar.

Bizlar ham gap isboti bilan degan naqlga ergashib, kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi YATT rahbari Lola Ibragimova degan ayolga bog'landik. Biz bu borada Amir Temurning “Rosti — rustidir” ta'biriga tayandik. Qahramonimiz borasidagi ilk savolimizdanoq L.Ibragimova

kutubxonasi ham alohida ajralib turar ekan.

— Shu tumanga savdoga borsam ma'naiy boyib, yurtimizni shunday xodimlar asrashlarini o'ylab sevinib qaytaman. Farzandimga niyat qilamanki, u ham A. Sayitov kabi el koriga yarashli, bilimdon farzand bo'lsin deb. Menga tuman IIBda joylashgan kutubxonadagi kitoblarni joylashuvini, sonini ko'rsatib, ko'zlari quvonganidan ham anglaymanki, bu idorada kitob qadri topgani aniq. Ha, L.Ibragimova juda ko'p tashkilotlarga kitob karvonlari bilan tashrif buyurganliklarini eshitib, ularning xulosalarida ayni haqiqat mavjudligini anglaymiz. Chindan ham ayrim idoralarga ishyumush masalasida borar ekanmiz, ko'zimiz bexosdan yaltiroq javon uzra chang bosib, holsizlangan, yoki taxi buzilmagan kitoblarga ko'zimiz tushadi. Mohirona ko'z bo'yamachilik, degancha “uh” tortamiz. Nima ham derdik, yuqorida ta'kidlaganimizday, kitobni sevgan, mutolaga har on shoshgan inson qaysi bir sohada bo'lmasin, eng ilg'or xodim, oilasida mulohazali yarim shar, atrofda inson qadri ulug'lovchi shaffof qarash sohibi bo'lib qadr-qimmatini oshib boraveradi. Qahramonimiz Aziz Sayitov ham aynan yuqoridagi ta'riflarimizga munosib ravnaq sohibir. Biz ularga kelajak avlod uchun xayrli iz qoldirish borasidagi ma'naviy yo'llarida ishonchli muvaffaqiyatlar bardavomligini tilab qolamiz.

Fikrlarimiz poyonida mutolaa borasidagi xulosalarimizni muhtasar qilib bildiradigan bo'lsak, adibimiz Primqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asarida Akbar tilidan keltirilgan ushbu gapni yodga olamiz — “Kitob-jaholat tunini quvg'uvchi chiroqdir”. Barchamiz o'z atrofimizni ushbu chiroq orqali yoritish imkoniyatiga ko'milib yashaylik azizlar!!

Lola NOROVA,
Guliston shahar Maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi
metodisti.

SOG'LOM AVLOD — MILLAT KELAJAGI

Yurtimizda yosh avlod salomatligini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy, intellektual va ma'naviy barkamolligi yo'lida

viloyat bo'limi xodimlari ham sidqidildan ado etmoqdalar.

1993-yil 23-aprel kuni tashkil etilgan xayriya fondi ko'chma tibbiy-ijtimoiy patronaj brigadalarida yuqori malakali



zarur shart-sharoitlarni yaratish keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Ko'plab davlat tashkilotlari qatorida bu vazifani deb belgilangan. “Sog'lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondining

mutaxassislar to'liq faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Unda oilalarning ijtimoiy sharoiti, undagi psixologik muhit, oila a'zolarining sog'ligi va ayniqsa, tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar, o'smirlar va qariyalarning sog'ligini

o'rganish, tibbiy, ijtimoiy, psixologik yordam hamda ijtimoiy muxofazaga muhtoj ayollar va bolalarni o'z vaqtida aniqlash, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Viloyatimizdagi kam ta'minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni nogiron farzandlari bevosita fond ko'magida respublikamiz va xorijiy davlatlar klinikalarida 32 nafar bemor bola operatsiya yo'li bilan sog'lomlashtirildi. Germaniyalik mutaxassislar tomonidan jami 1 200 ga yaqin bemor bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va 32 nafari tanlab olinib, Germaniya klinikalariga davolanish uchun yo'llanmalar berildi.

Viloyatning eng chekka hududlaridagi 100 000 nafardan ortiq aholining ijtimoiy ahvoli o'rganildi. Aholining 700 000 nafarga ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Reproktiv salomatlik va yosh onalar salomatligini muhofaza qilish sohasida diagnostik tekshiruvlar olib borildi.

Y.USMONOVA

• Nazm daftaridan

FARZANDIMGA

Yigit piri qo'llasin, deya
Ollohimga etgum iltijo.
O'ylab sening baxtu kamoling,
Qilajakman har kuni duo.

Dilbandiginam, ulg'ay sog'-
omon,
Senga mudom omad bo'lsin yor.
Iqbolingni ko'rgan chog'imda
Chin yurakdan etay iftixor.

Bolaginam, ajdodlar ruhi
Hayotingda mudom qo'llasin.
Dilingdagi ezgu maqsading
Nurli manzil tomon yo'llasin.

Sen-la boydir umrim mazmuni,
Zurriyodim, borlig'im o'zing.
Senga mening tilakkinam shu:
Yorug' bo'lsin hamisha yuzing!

Shoira TO'RAYEVA,
Yangier 3-IDUM xodimasi

Rostini aytсам, bunday bir qaraganda oddiygina, soddagina, ortiqcha bo‘yoqlarsiz tilda yozilgan hikoyani anchadan beri o‘qimagan ekanman. Nazarimda muallif voqeani yozmagan-u shundoqqina ko‘rsatib qo‘ygandek tuyuldi. Shunday ko‘rasiz-u: “Yo, tavbangdan ketay, bu axir o‘zimizning falonchi-ku, tanimay o‘libmanmi? Voy, go‘yo o‘zingiz tanimaganday gapirasiz-a. taniysiz...”, - deb yuborasiz beixtiyor.

Shaxsan o‘zim 2022-yilda “Ma‘rifat va yoshlar” gazetasida e‘lon qilingan “Byust” hikoyasini o‘qidim-u ko‘z oldimga mahallamizda yashagan Ummatqul aka degan telefonchi pochta xodimi esimga (telekom, telegraf degan tashkilotlar yo‘q edi) keldi.

Baxt hali shaharcha bo‘lmasidan bu odam birinchi telefon ustasi bo‘lib ish boshlagan. To yetmish yoshga borgunchami bir qo‘lida kabel, sim, yelkasida temir timoq (simyog‘ochga chiqadigan asbob) bir ko‘rsangiz u simyog‘ochning tepasida, goh bu simyog‘ochning tepasida: “Allo, allo aloqa bormi, ovoz boryaptimi?” – deb turgich edi boyaqish. Xullas, shu odam bitta o‘zi Baxtday kattagina hududda yagona mutaxassis bo‘lgan. Ko‘chama-ko‘cha tinmay yurgan ham shu kishi edi, eng ko‘p so‘kish eshitgan ham shu odam edi. Buyog‘ini so‘rasangiz, nufuzli idoralarning telefon aloqasiz kelgudek bo‘lsa, uxlab yotgan to‘shagidan ham turg‘azib, mashinada olib kelishar edi. Ayniqsa, yangi telefonlar chiqdi, uyali deymizmi, mobil, deymizmi. Modomiki yangi mutaxassislar ham kelishdi. Rahmatli qirq yildan ko‘p o‘ngida ham, tushida ham faqat “allo... allo” deb yurgan, indamasa, yangi

tug‘ilgan nevarasiga ham “Allo...jon” deb ism qo‘yvoradigan Ummatqul aka kerak bo‘lmay qoldi.

Ozginagina nafaqa bilan pensiyaga chiqarib yuborildi. Na yubiley, na bir

• **Taassurotlar, o‘ylar, mulohazalar...**

“BYUST” NI O‘QIB...

arzigulik mukofot... Men bu odamni pensiya olish uchun bir paytlar uzundan uzoq cho‘ziladigan navbatlarda qimtinib, nimadandir uyalib turganini ko‘rib, rahmim kelardi. Aftidan, eng kam pensiya olayotganidan uyalardi, hijolat tortardi.

“Byust”ni o‘qib, beixtiyor “Temir xotin” spektaklida Alomat-robot Qo‘chqorvoy traktorining yig‘latganini esladim. O‘ziyam Muhammadali Yusupov (farg‘onalik aktyor, rejissiyor) obdon yig‘laganda. Hurmat taxtasida chiqib ketgan rasmiga quvonib, qo‘llari qora moyga botib mehnat qilib, rohat ko‘rmagan bir insonning (xalqning ,desam to‘g‘riroq bo‘lar edi) butun fojeasi juda nozik detallar bilan ko‘rsatib berilgani har qanday tahsinga loyiq. Shuni ham menga “byust” eslatdi.

Endi o‘zim bevosita guvohi bo‘lgan bir voqeani aytmasam bo‘lmaydi. Juda ajoyib do‘stim, hamkasbim bor edi. Alloh rahmat qilsin. Mohir pedagog, oliy toifali o‘qituvchi, xalq ta‘limi a‘lochisi, salkam 50 yil bir maktabda o‘qituvchi, ilmiy bo‘lim mudiri, ma‘naviyatchi bo‘lib, fidokorona

ishlab kelgan. Hatto og‘ir kasalga chalinib, yotib qolgunga qadar katta bir maktabni butun bir tashvishi, yukini bo‘yniga olib, tinmay ishlagan inson. Shogirdlarining son-sanog‘i yo‘q.

Shu do‘stimiz ikki yilcha yotib qoldi. Shu davr ichida o‘zining bir vaqtlar o‘quvchisi bo‘lgan, shu odamning qo‘llab-quvvatlashi, tavsiyasi bilan direktor bo‘lgan rahbari biror marta hol so‘rab kelmadi. Bunisi ham mayli, ustozning tug‘ilgan kuni biz ikki kishi bo‘lib qutlab qo‘ygani uylariga keldik. Ustoz quvongandan quvonib ketdilar. Dasturxon yozildi. Farzandlar, nevaralar atrofimizda girdikapalak bo‘lib aylanib, tinmay dasturxonga goh bu narsa, goh u narsa olib kelib ketardi. Bemor hamkasbimizning chehrasi yorishgan, go‘yo kasalligi ham chekinganday tuyuldi bizga. Rosa chaqchaqlashib o‘tirdik. Ustoz tildan qolmagan, xotirasi ham tiniq edi. Shu payt xonaga bemor ishlagan maktabdan yoshroq o‘qituvchi, (ham o‘quvchi, ham shogirdi) kirib keldi. Negadir besaranjom, ko‘zlari ham olazarak, shoshib turgani ham shundoq bilinib turardi. Keyin bilsak, bu odam ustozini tabriklagani kelmagan, hatto tavallud kunini bilmas ekan. Unda nimaga kelgan ekan, deng. U “sho‘rlik”ni bemor kexsa o‘qituvchining shogirdi bo‘lgan

maktab direktori “muhim” topshiriq bilan jo‘natgan bo‘lib, topshiriqning mazmuni yotib qolgan o‘qituvchga zudlik bilan ariza yozdirib, qo‘l qo‘ydirish ekan. Shunday “muhim” ish ustozning tavallud kuniga to‘g‘ri kelib qolganini qarang-a...

— Ha, nomard, buning o‘rninga ikkita non olib, hech bo‘lmaganda biron kilo meva-cheva ko‘tarib, tabriklagani kelsang, asakang ketarmidi? Nahotki shuncha yil birga ishlagan ustozning hurmati, qadri bo‘lmasa...

Bundan oldinroq o‘sha ustozni tuman xalq ta‘limi bo‘limidan bir xodim telefonda “Nega yig‘ilishlarga qatnashmayapsiz? Ishlasangiz, ishlang, bo‘lmasa...” deb dag‘dag‘a qilgan ekan. Buni ustoz o‘ksinib, bizga gapirib bergandi.

Alloha shukronalar bo‘lsinki, muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yig‘ilishlarda “odamlarni rozi qilinglar, yerga tushinglar, xonadonma-xonadon yuringlar, bizdan hech kim norizo bo‘lmasin”, deb ko‘p bor ta‘kidlamogdalar.

Mening nazarimda o‘z qo‘li ostidagi xodimlarning mehnatini qadrlamaydiganlar, sholining ichidagi kurmakdek hali ham topiladi. Tag‘in ham bilmadim...

Xullas, gapning indallosini aytganda, “Byust” hikoyasidan oladigan saboqlar juda ham ko‘p, shu o‘rinda xalqimizning ma‘naviy tafakkurini boyitishga xizmat qilayotgan “Ma‘rifat va yoshlar” gazetasi xodimlarning ishlariga ham omad tilayman.

Habibulla XO‘JAYEV,
Sirdaryo tumani.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM – TA‘LIMNING BOSHI

Hech shubha yo‘qki, farzandning ilk muallimi bu uning ota-onasi hisoblanadi. Bolaga tarbiya berishga qancha urinmaylik, ular oilada ota-onasidan ko‘rganlarini qiladilar. O‘z navbatida ota-onaning ma‘naviy dunyosi qanchalik keng bo‘lsa, bolaning ham bilimga chanqoqlik darajasi yuqori bo‘ladi. Oilaviy muhitdan keyingina maktab va o‘qituvchining vazifasi boshlanadi. Boshlang‘ich ta‘limning o‘quvchi hayotida beqiyos o‘rni, ahamiyati bor. Boshlang‘ich ta‘lim qay darajada mukammal va rangbarang bo‘lsa, o‘quvchini o‘ziga jalb eta olsa, bolaning keyingi bosqichlarda ta‘lim olishiga katta yo‘l ochib beradi. Milliy o‘quv dasturi mohiyatidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, sinflararo uzviylikni mukammal darajada saqlash, ta‘limning keyingi bosqichlari bir-birini to‘ldirib borishi bu o‘z navbatida pedagogning mahoratiga bog‘liqdir. Shunday ekan, eng avvalo boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining salohiyati ustozlik mahorati va ayniqsa, bilim darajasi yuqori bo‘lishi lozim.

O‘qituvchilar har bir dars soatlarini yangidan yangi texnologiyalar, metodlar asosida o‘tib, endigina bilim maskaniga qadam qo‘ygan o‘quvchilarni bilim olishdan bezdirib qo‘ymaslik, ularni darslarga qiziqtirish, masuliyatini oshirish uchun tinimsiz harakat qilishmoqda.

— Bugungi globallashuv davrida keng qamrovli axborotlar oqimi ta‘lim mazmunini doimiy tarzda yangilab, takomillashtirib, sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Jadal sur‘atda o‘zgarib borayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va ma‘naviy hayotda davrning o‘zi o‘quvchi-yoshlar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirish, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etmoqda, – deydi Yangiyer shahar 6-sonli umumta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf

o‘qituvchisi Dilbar Shukurova.

Shu jihatlarini ko‘zda tutgan holda o‘qituvchilar o‘z darslarida yangidan yangi texnologiyalarni qo‘llashmoqda. Masalan, yaqinda maktabimizda o‘tkazilgan “Biz — sportchi oila” musobaqasi o‘quvchilar va ularning ota-onalari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Bu musobaqada ota-onalarning ishtiroki o‘quvchilarga yanada dadillik bag‘ishladi. Dilbar opaning tashabbusi bilan tashkil etilgan musobaqa juda ham ko‘tarinkilik bilan o‘tdi. Beshta muhim tashabbusning ikkinchisi bo‘lgan sport inson salomatligi uchun qanday muhim ekanligini o‘quvchilarga ular hali bola ekanidayoq anglatmoq zarurki ular kelajakda bu borada etakchilardan bo‘lsin. Qolaversa, “mamlakatni hech qaysi soha sportchalik dunyoga mashhur qila olmaydi”.

— Eskiicha uslubda, oddiy va zerikarli usul va metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkil etishga bugungi kunning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi. O‘quvchining mehrini qozonish, uning hurmatiga sazovor bo‘lish, uni o‘z faniga qiziqтира olish chinakamiga “ustoz” degan nomga loyiq bo‘lish uchun har bir pedagog o‘z oldiga “Bugungi kun pedagoglari qanday bo‘lishi kerak?” degan haqli bir savolni qo‘yishi lozim – deydi D.Shukurova.

Mening fikrimcha esa, bugungi kun o‘qituvchisi birinchi navbatda o‘z fanining ustasi, ya‘ni mukammal bilim egasi bo‘libgina qolmasdan ana shu bilimni o‘quvchiga sodda, tushunarli va qiziqarli, hech qachon unutilmaydigan qilib yetkazib bera oladigan darajada mahoratli, dunyo qarashi keng va hozirjavob bo‘lishi, boshqa fanlardan ham xabardor bo‘lishi lozimki, uning darsi hech bir o‘quvchisini qiziqitirmay qoldirmasin.

Maxsuda MIRZAYEVA,
Ijodiy-madaniy masalalar
bo‘yicha targ‘ibotchi.

Profilaktika inspertokorining har xil xulq-atvordagi kishilarga ta‘siri

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning barchasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilmoqda. Yangilanayotgan Konstitutsiyaning ham tub mohiyatida, har bir insonning turmush sharoitini yaxshilashga, ularning huquq va erkinliklarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan bir qator g‘oyalar yotadi.

Yuqoridagilarga asosanib, profilaktika inspektori xalq bilan ishlash jarayonida turli qatlamdagi insonlar bilan o‘zaro ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga kirishadi. Xususan, ziyolilar, yoshlar, voyaga yetmaganlar, sud tomonidan xavfli retsidivist deb topilganlar, huquqbuzarlar, ma‘muriy-jinoiy yoki boshqa turdagi huquqbuzarliklarni sodir etmagan bo‘lsalar ham ammo buni sodir etishga moyil bo‘lgan g‘ayriijtimoiy hулq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar va boshqa shaxslarni kiritib o‘tishimiz joiz. Ular har biri bilan ishlashda profilaktika inspektoridan turli yondashuvlarni amalga oshirish talab etiladi hamda ularning biriga qo‘llanilgan usulni boshqasiga qo‘llab bo‘lmaydi. Shu sababli ular bilan ishlashda ta‘sir etish usullarini to‘g‘ri tanlay bilish kerak. Profilakrika inspektori tomonidan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlashning viloyatimiz tajribasida bu turdagi shaxslar toifalari hamda ularga nisbatan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan profilaktik ishlar belgilab qo‘yilgan.

Jinoiy profilaktika qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar o‘z navbatida ilgari sudlanganlar, o‘ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar, farzand tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ota-onalar, oila turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar, muntazam spirtli ichimlikka ruju qo‘ygan



shaxslar, giyoxvandlikka chalingan shaxslar, ruxiy kasallardan hamda boshqa shaxslar toifasidan iborat.

Ijtimoiy profilaktika qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar toifalariga esa ishsizlar, kam ta‘minlangan nochor oilalar, o‘zaro hal etilmagan qarzdorligi mavjud fuqarolar, ota-onasi uzoq muddatga ketgan voyaga yetmaganlar, muntazam ravishda tazyiq va zo‘ravonlikka uchrab kelayotgan shaxslarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, yakka-yolg‘iz yashovchi keksalar, turmushidan ota-onasinikiga qaytib kelgan ajrim yoqasidagi shaxslar, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz haydovchilar to‘planadigan joylar, qarovsiz qolgan xonadonlar va xavsizligi ta‘minlanmagan savdo shahobchalari, daromadi yuqori bo‘lgan aholi yashaydigan xonadonlarni viktinologik profilaktika qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar va ob‘yektlar qatoriga kiritishimiz joiz.

Qobiljon RAHMONQULOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi
3-o‘quv kursi 311-guruh kursanti.



Anvar OBIDJON, O'zbekiston xalq shoiri TINCh KUNLAR

Bizlar quraverdik, buzaverdi yov
Qo'rg'onu uyimiz, ko'shku qasrni.
Sha'nimizni deysib ezaverdi yov,
Ko'rmadik suronsiz biron asrni.
Turon solnomasin o'qir talaba,
Sahifalar guvlar janglarga to'lib.
Har bir mag'lubiyat, har bir g'alaba
Iz solmish "Tarixiy voqea" bo'lib.
Fitnaga boy erur har qaysi zamon,
Jim tursang-da cho'zar qattollar bo'yin.
Tutmoqlikdan ko'ra nayzaga qalqon,
El tinchin sog' asray bilmoqlik qiyin.
Bir o'yga chorlagay kitob yakuni:
Ichikamiz yozga faqat qish fasli.
Yurtimning tinchgina o'tgan har kuni
Mislsiz Tarixiy Voqea asli!

Poyezddan tushgan qushcha

Vagondan qiz, misli par,
Erga engil sakradi.
Yuzidagi sepkillar
Ko'zlarimga sachradi.
Qizmi, qizga do'ngan qush?
Qumriko'z-u, sutbadan.
Nahot men-chun yubormish
Tangrim uni Ufadan!
Shirin o'ydan mastlanib,
Yoyganimda asta pat;
Birdan uchdi pastlanib
Mendan burun Bikbulat.
Bordiyu jon halpida,
Changal urdi sor bo'lib.
Qushcha uning bag'rida
Eriyverdi qor bo'lib.
Perron to'la odamga,
Ikkov esa yop-yolg'iz.
Qolmish go'yo olamda
Bitta yigit, bitta qiz...
Bikbulat-la quchinib
O'tarkan qiz selkillab;
Ko'zlarimning ichini
Achishtirdi sepkillar.

OTA O'GITI

Har bitta so'z — suvdek aziz,
Har bitta so'z — nondek uvol.
Til boyligin bog' deb bilsak,
Har bitta so'z — bitta nihol.
Biron so'zni isrof qilmoq
Bir ko'chatni yulmoqlikdir.
Bora-bora, otameros —
Bog'ni xarob qilmoklikdir.
E bolam, yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda, mening qutlug' tilim —
Navoiyning she'ri, degil.
Yurtim — Ulug'begu Bobur,
Amir Temur eri, degil.
Ayt g'urur-la Beruniylar,
Farg'oniylar ajdodim, deb.
Koshg'ariylar darsin tinglab,
O'tkirlangan savodim, deb.
Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlaru qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy til, nasab-nasling bilan.
Obro'yingni baland tutmoq,
E bolam, o'z qo'lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

O'SPIRINCHA

Beg'am dilim shum qizning
Tuzog'iga ilindi.
Ko'zim zarko'z yulduzning
Nigohiga ilindi.
Jabr ayladim jonimga.
Chehrasida charsillar
Ishvalarin uchquni.
Qo'lga qo'ngan go'l kaptar
Menman, bo'ldim tutquni,
Jabr ayladim jonimga.
Joduga lim cho'g' ko'z-la
Quchog'iga tortqilar.
Jonginamni o't hislar
O'chog'iga tortqilar,
Jabr ayladim jonimga.
O'z-o'zimni qiynayman,
Do'zaxchamda kuygancha.
Doshqozonda qaynayman
O'tyoqarni suygancha...
Jabr ayladim,
Jabr ayladim jonimga!

MATNSHUNOS

Namxush xona. Mayishgan kursi.
Eman stol. Titilgan kitob.
O'ngib yotar so'zlarning tusi,
Matn uzra u emaklar xunob.
Hanuz chayir uloqchi otdek,
Hanuz qorin qo'ymasdan yashar.
Tegrasida jimlik hayhotdek,
Tanholikka to'ymasdan yashar.
Vaqt simirdi yillar totini,
Jimlik oxir chaldi qo'ng'iroq.
Shunda, birdan odam zotini —
Qo'msab, ichin silkitdi titroq.
Sezdi, charchoq olgach zaptiga,
Yolg'izlikdan safolanmasdan;
Yashab bo'lmas yotlar taftiga —
Bag'ir tutib davolanmasdan.
Mo'raladi eshikni ochib,
Yashil baxtdan qamashdi ko'zlar.
Tarqaldi so'ng, zax uydin qochib,
Yurtga ko'hna zarqanot so'zlar.

XOTIRA GIRDOBI

Tushmay qoldi qalamim izga,
Toliqtirdi to'liqib yashash.
Og'ir kechdi, xayolan Sizga
Kunda yuz bor yo'liqib yashash.
Chalg'itar na sayl, na gurung,
Topolmasman axtarib pana.
Mendan birpas berkinib turing,
Kichik bir she'r yozvolay, ona.

TABIB TAAJJUBI

Nechun qarib ham zir-zir
Titragaymiz o'lishdan?
Asli ketish osondir
Bu dunyoga kelishdan.

BULBULNING SALOMNOMALARI

Qo'rqoqlarning ko'rqog'i g'ilay
Quyonga salom,
Yo'qdir yaqin o'rtog'i, sho'rlik
Chayonga salom.
Shoxdan shoxga yugurgan, dumida
uy supurgan,
Yong'oq chaqib tupurgan sho'x
Olmoxonga salom.
Arg'amchidek buralar, yantoqlarga
o'ralar,
Qo'ng'iz o'tsa mo'ralar, bo'g'ma
Ilonga salom.
Ho'kizlarni yiqitgan, Qashqirlarni
qo'rqitgan,
Bor jonzotni hurkitgan shoh Arslonga
salom.
Xo'tikchaning qondoshi, ochlikka
zo'r bardoshi,
Kamroq bo'lsa ham oshi, erkin
Qulonga salom.
Xumbosh hamda xirqiroq, oziq tishi
oshnichoq,
Ochko'zligi sap chatoq, xasis
Qobonga salom.
Nafsi o'lja tilagan, qo'lin qonga
bulagan,
Asta mo'ylov silagan pismiq Sirtlonga
salom.
Meshkay qorni qavoqdir, burni tappak
tovokdir.
Ikki lunji lavokdir, go'l Karkidonga
salom.
Guldor go'ni kelishgan, qurtlarni eb
to'lishgan,
Daraxtlarda in teshgan Qizilishtopga
salom.
Chidab sovuq-ushukka, insof tilab
Mushukka,
Pishloq sudrar teshikka, olg'ir
Sichqonga salom.
O'g'rilarning ustasi, qushning xunuk
tusdasi,
Ko'rib qo'ying nusxasin, sur
Zag'izg'onga salom.
Tupu kun er qazigan, zaxda yotib
ozigan,
Ko'p tirishib, oz yegan go'shtxo'r
Yumroiga salom.
Igna-bigiz sotuvchn, kuzda loyga
botuvchi,
Ilon poylab yotuvchi Tipratikonga
salom.
Bebahodir po'stini, poylar hatto
do'stini,
Sipo demang siz uni, ayyor Qoplonga
salom.
Rizqin mag'rur izlagan, yuksaklarni
ko'zlagan,
Dushmanlarni tuzlagan botir Tarlonga
salom.
Bulbul kabi izillar, tog'-toshlarda
g'izillar,
Yirtqichlardan bezillar, do'stim
Jayronga salom.

BEHI

Ikki yuzim burushqoq,
Dema meni urishqoq.
Ishga solib aqlimni,
Sezdirmayman jahlimni.
Agar shirin bo'lmasam,
Xushomadni bilmasam,
Meni darrov kesishar,
O'rnimga nok ekishar.

PARVARDA

Tug'ilgandi Bo'richa
Sakkizinchi yanvarda.
Bugun bir yil to'libdi,
Adashmasa agarda.
Va'da qildi oyisi
Unga quyon go'shtini.
Va'da qildi dadasi,
Unga kiyik to'shini.
Bilmasa ham yosh Bo'ri
Dunyoning keng-torligin,
Eshitgandi dunyoda —
Shirinliklar borligin.
Injiqlandi u birdan:
«Sovga qiling parvarda,
Hech bo'lmasa eb ko'ray
Sakkizinchi yanvarda».
Taskin berdi oyisi:
«Bolam, adir — do'konmas».
Dadasi der: «Shaharga —
Borib kelmoq osonmas».
Fursat poylab erkatoy,
Chikdi-yu g'or — uyidan,
Shahar tomon yugurdi
Chopqir anhor bo'yidan.
Chiroqlarga angrayib,
Tushib borgan choq pastga;
Uni ushlab shaharda,
Qamadilar qafasga.
Endi uni yosh-qari
Qilar har kun tomosha.
U termilar adirga
Baland-baland tom osha.
...Yillar o'tib oradan,
Sakkizinchi yanvarda,
Bir qiz yuvvosh Bo'riga
Tashlab o'tdi parvarda.

CHIRMANDA QO'SHIG'I

Yum-yumaloq qosqonim,
Bak-baka-bum.
Bo'ynimda mis marjonim,
Bak-baka-bum.
Menga tushar shapaloq,
Bak-baka-bum.

MILTIQChA QO'SHIG'I

Do'konlarda sotilaman.
Paq-puq.
Elg'ondakam otilaman,
Paq-puq.
Yoqtiraman mard o'rtoqni,
Paq-puq.
Cho'chitaman lanj, qo'rqoqni...
Paq! Puq!

IGNABARG SHE'RLAR

— Hamma chivin xushtordir
menga!

Oshga ketib, qirq yil qaytmadi...

Qo'li issiq, qarashi sovuq.

— Bo'tqagayam tillo qoshiqmi?!

Uni asrar tanish mikroblar.

Chiroq o'chdi. Yorishdi kelin.

MA'RIFAT VA
YOSHLAR

MUASSIS:
«Sirdaryo Matbuot
Xizmati» MCHJ

Bosh muharrir:
G'anisher IBROHIMOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Sirdaryo
viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 10-024 raqam
bilan 09-mart 2022-yilda ro'yxatga olingan.
Manzil: Guliston shahri, Navoiy shohko'chasi 30-uy

Jamoatchilik kengashi raisi: Alisher NUR

Gazeta tahririyatning kompyuter markazida terilib,
sahifalandi. «Poligrafiya» AIK MCHJ bosmaxonasida
A-3 formatda 4 sahifada ofset usulida 1000 nusxada
chop etildi.

Manzil: Guliston shahri, Navoiy shohko'chasi,
28-uy.

Buyurtma №
Nashr ko'rsatkichi: 6053

ISSN 2181-3140
Topshirildi: 17.00
04.05.2023-yil.

Nashr uchun ma'sul:
K.XOSHI MOV.
Bahosi kelishilgan narxda.